



# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# M

## AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

### TAHRIR HAY'ATI:

|  |  |                           |
|--|--|---------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor   | Bosh muharrir             |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor   | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor  | A'zo                      |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  | A'zo                      |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                      |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                      |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  | A'zo                      |
| Shirbachevna Gulchexra Shakirovna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent   | A'zo                      |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  | A'zo                      |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich          | pedagogika fanlari nomzodi   | A'zo                      |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti | A'zo                      |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  | A'zo                      |
| Radjabova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                      |

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” .....                  | 6  |
| Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich  |    |
| Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....                                  | 8  |
| Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna   |    |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....  | 12 |
| Хамдамова Махзуна Турсуновна   |    |
| Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....  | 15 |
| Asiljonova Shohsanam Doniyorovna   |    |
| Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....                                   | 18 |
| Babayeva D. R.   |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri .....               | 21 |
| Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi  |    |
| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....                                 | 25 |
| Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna  |    |
| Неполные предложения как объект исследования .....   | 28 |
| Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна  |    |
| Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....   | 32 |
| Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi  |    |
| Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....  | 36 |
| Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich  |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....            | 38 |
| Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi  |    |
| Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....                                | 41 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam  |    |
| Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....  | 46 |
| Bafayev Muxiddin Muhammadovich   |    |
| Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....                | 50 |
| Ризаев Азизжон Рахимджанович   |    |
| Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....   | 54 |
| Marasulova Dono Nigmatullayevna  |    |
| Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....      | 59 |
| Matchanov B. O.  |    |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari..... | 63 |
| Muratova Munavvar O‘rol qizi   |    |
| Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....  | 67 |
| Нажмиддинова Гулноза Одилевна  |    |
| Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....   | 70 |
| Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi  |    |
| Методика развития речи дошкольников.....   | 74 |
| Очилова Хилола Шералиевна  |    |
| Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....          | 78 |
| Elem Gökteş  |    |
| Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....                                      | 87 |
| Равшанова Наргиза Норбоевна  |    |
| Отешова Гульнур Кабуловна  |    |



|   |     |
|---|-----|
| Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....               | 91  |
| Хайдаров Р.   |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....   | 95  |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna   |     |
| Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....   | 100 |
| Садикова Шоиста, Тохинова Шохсанам  |     |
| Maktabgacha ta'limda yuksalish .....  | 104 |
| Shirbachevna Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... | 106 |
| Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna  |     |
| Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....  | 109 |
| Tokhirova Shokhsanam  |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongning shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....  | 114 |
| Xo'jamatova X. M.   |     |
| Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rni .....  | 119 |
| Yakubova Zilola Zikirovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....   | 122 |
| Mirkasimova Zilola Alisherovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....   | 124 |
| Musratova Zilola Ulugbekovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati .....   | 128 |
| Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durдона Shohasan qizi   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....  | 132 |
| Teshabayeva Zamira Sobirovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....   | 135 |
| Maxmudova Dilorom Axmadovna   |     |
| MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....   | 137 |
| Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna  |     |
| Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....  | 140 |
| Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich  |     |
| Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....  | 143 |
| Khalilova Dilnoza Furkatovna  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....   | 146 |
| Jumanova Fatima Uralovna  |     |
| Talabalarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....   | 149 |
| Kamalova Gavhar Akbarovna   |     |
| Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....   | 152 |
| Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna  |     |
| Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....                                  | 156 |
| Ne'matova G. A.   |     |
| Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....  | 160 |
| Norboyeva Dilafruz Jumakulovna  |     |
| Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....   | 163 |
| Yuldasheva Dilnoza  |     |
| Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....  | 166 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna   |     |
| Raxmatova Saodat Amrakulovna  |     |
| Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....  | 172 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....                                 | 176 |
| Тургунов Абдурашид Абдуманнобович   |     |
| Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....                               | 182 |
| Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi  |     |
| Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....                           | 186 |
| Jalilova Saboxat Xalilovna  |     |
| O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....   | 191 |
| Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna   |     |
| Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....   | 196 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abdusalilovna  |     |
| Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati .....  | 199 |
| Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li   |     |
| Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....                          | 202 |
| Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna  |     |
| Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....                             | 205 |
| Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li   |     |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning<br>pedagogik-psixologik xususiyatlari..... | 209 |
| Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna  |     |
| Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО.....  | 212 |
| Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.  |     |
| Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....                           | 215 |
| Xusanov Samariddin Maxmadaminovich  |     |



## TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI



Ibragimova Gulsanam Ne'matovna

Nizomiy nomidagi TDPU, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi. Xususan, Yangi taraqqiyot davrida ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada rivojlantirish zarurligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ma'rifat, salohiyat, globallashtirish, ijtimoiy, faollik, e'tiqod, yoshlar, axloq, milliy, umuminsoniy, bag'rikenglik, mustaqillik, fikr, zamonaviylik, bilim, kasb-hunar, tarbiya, qadriyatlar, hurmat, yuksaltirish, farzand, mafkura, immunitet.

**Abstract:** This article emphasizes that improving spiritual and educational work in educational institutions is one of the priority areas for the development of the social sphere, as well as the need to update the content of the educational system in a new period of development and its further development in a new social environment.

**Key words:** spirituality, education, capacity, globalization, social activity, faith, youth, ethics, national, universal tolerance, independence, thought, modernity, knowledge, profession, education, values, respect, encouragement, child, ideology, immunity.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается, что совершенствование духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях является одним из приоритетных направлений развития социальной сферы, а также необходимость обновления содержания образовательной системы в новый период развития и ее дальнейшего развития в новой социальной среде.

**Ключевые слова:** духовность, просвещение, дееспособность, глобализация, социальная активность, вера, молодежь, этика, национальная, всеобщая толерантность, независимость, мысль, современность, знания, профессия, образование, ценности, уважение, поощрение, ребенок, идеология, иммунитет.

Respublikatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, ijtimoiy faolligi, diniy bag'rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini obyektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida qator o'ziga xos ma'suliyat yuklaydi.

Globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, ijtimoiy-huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois 2 milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda. Yoshlar tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorlik darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishi munosabati bilan mazkur masala tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar – keng ommani ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimi [3].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", deb alohida qayd etdi. Shu bois, mamlakatimizda "mus-



taqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash". Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda natijaviylikni ta'minlash uchun ularning boshlang'ich tushunchalari, ijtimoiy faolligining ahamiyati va zaruriyati haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish; ta'lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; yoshlarda ilm olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish; pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash; pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta'minlash zarur.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifamiz – mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ularni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun talablari asosida davom ettiriladi.

Bunday dolzarb muammolarni yechish, avvalo yangi taraqqiyot davrida ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Uni rivojlantirish esa ikki tamoyilga tayanadi. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda o'tmishni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o'ziga xos jihatlarni, an'ana va urf-odatlarini hisobga olib, tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan ma'naviy merosi va milliy qadriyatlardan foydalanish bo'lsa, ikkinchi tomondan tafakkuri va ijtimoiy amaliyotida to'plagan boy tajribasidan samarali foydalanishdir. Bu tamoyillar jamiyatimizning yangi rivojlanishi uchun ijtimoiy-ma'naviy asos bo'lishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" talablariga mos ravishda yoshlarni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, dunyoda kechayotgan murakkab mafkuraviy jarayonlardan ogohliligini yanada kuchaytirish zarurati tug'ildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan "Ma'naviy yo'nalishlarimiz iqtisodiy yo'nalishlardan o'n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi", tarzida ifodalangan metodologik prinsip ma'naviy-ma'rifiy faoliyat funksiyalarini, rolini, o'rnini, ahamiyatini asoslab berdi. Mazkur g'oyalari O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri sifatida xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish yo'nalishiga zamin yaratdi. Amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning beshinchi yo'nalishi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish", deb belgilangan. Ushbu yo'nalishda sohani "yangi", sifat bosqichiga olib chiqish vazifasi masalaning modernizatsion mohiyatini belgilab beradi. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida inson kapitalini rivojlantirish hamda bevosita ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarini amalga oshirish, aholining 18-30 yoshli qatlami milliy tafakkurini rivojlantirish, mamlakatda ma'rifatli jamiyatni barpo qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarorining 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib "yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish" ta'kidlangan. Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondoshishda maqsadli innovatsion yondoshuv bo'lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va 18–30 yoshli yigit-qizlarni ana shu ijtimoiy kompetensiyalar bilan qurollantirilishini talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, yangi taraqqiyot g'oyasi targ'ibotini ijtimoiy, integrativ pedagogik ta'minlash hozirgi davrimiz uchun nihoyatda muhim ekanligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda ma'naviy-ma'rifiy soha milliy tarbiyaviy qadriyatlarimizni tiklash, ularni to'plash, o'rganish, xalqqa yetkazib berishni ma'naviy siyosatimizning poydevoriga aylantirish kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar obyektlari - millati, tili, jinsi, ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari, yoshlari, xususan, quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari;
- uyushmagan yoshlar;

- davlat va xususiy korxonalarda faoliyat olib borayotgan fuqarolar;
- nuroniylar, mehnat faxriylari hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy texnologik tamoyillari ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, uzviylik, uzluksizlik, hayotiy misollarga tayanish, ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi, targ'ibot jarayonining izchilligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish hisoblanadi. Mazkur tadqiqot uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ustavida belgilab qo'yilgan "xalqaro maydonda yuz berayotgan muhim voqea-hodisalar, yon-atrofimizda kechayotgan jarayonlar mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, odamlarning faol mushohada yurituvchi va teran idrok etuvchi, ma'nau yetuk, siyosiy jihatdan faol fuqarolarga aylanishiga imkon yaratish"da ilmiy, komparativ yondashuv katta imkoniyatlar yaratadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning texnologik komponentlari – o'quvchi-yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar va mustahkam mafkuraviy immunitetni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi usul va uslublarni anglatadi. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni olimlardan iborat ekspert guruhlarini jalb qilgan holda tadqiq qilish, targ'ibot-tashviqot tadbirlari va elektron targ'ibot orqali tushuntirish, inontirish, ishontirish, ko'rsatish, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va boshqa ijtimoiy pedagogik-psixologik usullar o'zining samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar texnologiyasining yana bir komponenti uning shakllari, jumladan:

- ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar;
- ijtimoiy tarmoqlarda guruh, forumlar, messengerlar, guruhlar;
- ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;
- jamiyatda obro' qozongan, boy hayotiy tajribaga ega nuroniylar va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohaslarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar;
- ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar,
- ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, madaniy, badiiy, mafkuraviy, huquqiy mavzularga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;
- sohadaga ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- "Hududlarning ma'naviy-ma'rifiy muhit Xaritasi", "Bir ziyoli uch oilaga ma'naviy homiy", "Bir tahdidga besh zarba", "Uzluksiz ma'naviy tarbiya", "Oilaga ma'rifat ulashib" va boshqa texnologiyalar orqali oila, mahallalar va mehnat jamoalaridagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish, takomillashtirish;
- teleko'rsatuv va radio eshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, OAV, veb-saytlar va elektron o'yinlar, turli gadjetlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;
- davlat va jamoat tashkilotlari, mahallalar, ta'lim muassasalarida aholi bilan uchrashuvlar;
- ilmiy, ilmiy-ommabop, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda monografiya, kitob, risola, maqolalar, infografi-kalar, slaydlar, elektron nashrlar chop qilish va boshqalar. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi – respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi faoliyati (texnologiyasi)ni tashkil etish uchun mas'ul asosiy institut hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ijtimoiy texnologik yondashishdan kutilayotgan natija jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligining oshishida, aholining yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarida, fuqarolik pozitsiyasida, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishdagi faolligida, Vatanga muhabbati va uni yot g'oyalarga qarshi immunitetning oshishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarimizni zamonaviy bilim va yuksak kompetensiyalar, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasini ta'minlash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami", 5-yo'nalish, 70-maqсад.
2. Проблемы гражданского общества. Ежемесячный обзор зарубежной литературы. – 2018. – №9 (14).
3. Pedagogik atamalar lug'ati. Djuraev R.H., va boshqalar. –T.: Qori Niyoziy nom. ITI nashriyoti, 2008.
4. Mirziyoev Shavkat Miromonovichning tarjimai holi va dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod. – Toshkent: "Ozbekiston", 2016. – 35-36-betlar.
5. 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari.





**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**